UO‘K: 323(575.1)

O‘ZBEKISTONNING MUSTAQIL TARAQQIYOT YO‘LI - O‘ZBEK MODELI (TAHLILIY TALQIN)

Salayev Umrbek Kadambayevich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlar universiteti o‘qituvchisi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Orcid: ***https://orcid.org/0009-0000-0665-0619***
gmail: ***umrbeksalayev25@gmail.com***

Otajonova Zumrad Ne’matjonova,
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 224-“Tarix” guruhi talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684555

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni, uning tarixiy shart-sharoitlari hamda mustaqillikning mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbek modeli”ning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Modelning besh asosiy tamoyili — davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish hamda qonun ustuvorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ushbu modelning O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, “O‘zbek modeli”ning zamonaviy talqini va uning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola yakunida ushbu modelning milliy davlatchilikni mustahkamlash, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va jamiyat farovonligini oshirishdagi roli xulosa qilinadi.*

Kalit so‘zlari. *Mustaqillik, O‘zbekiston, O‘zbek modeli, Islom Karimov, taraqqiyot strategiyasi, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy siyosat, davlat islohoti, qonun ustuvorligi, milliy davlatchilik, iqtisodiy rivojlanish, Yangi O‘zbekiston.*

Аннотация. *В данной статье анализируются процесс обретения независимости Республики Узбекистан, его исторические предпосылки и сущность независимости. Также освещаются теоретические основы и практическое значение «узбекской модели» развития, разработанной Islom Karimov. Рассматриваются пять ключевых принципов данной модели: ведущая роль государства в реформах, сильная социальная политика, приоритет экономики над политикой, поэтапный переход к рыночной экономике и верховенство закона. В исследовании обосновывается роль данной модели в обеспечении социально-экономической и политической стабильности Узбекистана. Кроме того, раскрывается современная интерпретация «узбекской модели» и её значение в стратегии развития Нового Узбекистана. В заключении подчеркивается её роль в укреплении национальной государственности, обеспечении экономического роста и повышении благосостояния общества.*

Ключевые слова. *Независимость, Узбекистан, узбекская модель, Islom Karimov, стратегия развития, рыночная экономика, социальная политика, государственные реформы, верховенство закона, национальная государственность, экономическое развитие, Новый Узбекистан.*

Abstract. *This article analyzes the process of gaining independence of the Republic of Uzbekistan, its historical background, and the essence of independence. It also examines the theoretical foundations and practical significance of the "Uzbek model" of development developed by Islom Karimov. The five key principles of this model are discussed: the state as the main reformer, strong social policy, the priority of the economy over politics, a gradual transition to a market economy, and the rule of law. The study highlights the role of this model in ensuring socio-economic and political stability in Uzbekistan. Furthermore, the modern interpretation of the "Uzbek model" and its importance in the development strategy of New Uzbekistan are revealed. The conclusion emphasizes its role in strengthening national statehood, ensuring economic growth, and improving public welfare.*

Keywords. *Independence, Uzbekistan, Uzbek model, Islom Karimov, development strategy, market economy, social policy, state reforms, rule of law, national statehood, economic development, New Uzbekistan.*

Kirish. Xech bir davlat yo‘q-ki o‘z mustaqilligini oson qo‘lga kiritgan bo‘lsa. Xech qaysi davlat yo‘q-ki oson mustaqil davlatni qo‘ldan boy bersa. Zamonlar guvoh o‘z ona yeri, tuprog‘i, vatani uchun necha xalqlar kurashgan, jon bergan.

Mustaqillik so‘zi darsliklarda “o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lish”, deb talqin qilinadi[1]. Bu manbalarda. Lekin, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida o‘zi izoh beradi. Mustaqillik bu “huquq”. Qachonki odamlar o‘z huquqini talab qilsa, unga erishsa-agar, bu – mustaqillik” [2]. “Lotinlarda bir maqol bor. Har bir yurt o‘ziga yarasha, o‘ziga mos rahbarga ega bo‘ladi.” – Ozod Sharafiddinov[3].

O‘zbekistonning mustaqil bo‘lishi o‘ziga xos vaqtni va davrni taqozo qildi. Ijtimoiy ziddiyatlar, keskin siyosiy burulishlar va tarixiy qarorlar. 1989-yil 21-oktabr o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalq uchun mustaqillik shabadasini eslatdi. 1990-1992-yillar O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Islom Karimov tomonidan chuqur tahlillar asosida xal qilindi. O‘zbek ishi, Paxta ishi, Farg‘ona voqealari, markaz bilan keskinlashuv, ijtimoiy muammolar aniqlandi. Muhim topshiriqlar berilib, aholi, qishloq joylaridagi ijtimoiy qatlam rozi qilindi.

Yana bir muhim qadam O‘zbekistonning kelajagi uchun yorqinasos bo‘ldi. Yangi mustaqil davlat o‘zining ramzlari: bayroq, gerb, madhiyasiga o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘ldi. Lekin, O‘zbekiston uchun bundanda muhim qarorlar bor edi. Qo‘shni va uzoq davlatlardan endigina o‘z mustailligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston uchun savollar talay edi. “O‘zbekiston o‘zi qaram davlat bo‘lsa, sovet davlatidan berilgan qarzlar evaziga kun ko‘rib kelayotgan bo‘lsa, bu davlat o‘z kelajagini qanday quradi. Qanday asos bilan barpo etadi?” – aynan shunday savollar to‘lib toshgan edi.

Bu burulish pallasi. Birinchi Prezident I.A. Karimov chuqur mulohazali, uzoqni ko‘ra bilgan va analitik xotiraga ega shaxs edi.

Mavzuning dolzarbligi. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli”. Bu modelning muallifi Islom Karimov. 1992-yil Toshkentda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqiyot yo‘li” asari beshta tamoil asosida O‘zbek modelini asoslab berdi. Asar o‘zbek, rus va ingiliz tillarida 20000 nushada chiqarilib barcha davlatlarga tarqatildi. O‘zbekiston mustaqil davlat. Bu model vatan taraqqiyotini yuqori cho‘qqisiga olib chiqdi. Kelib tushgan barcha savollarga to‘liq javob berildi.

1. Davlat bosh islohotchi.
2. Kuchli ijtimoiy siyosat.
3. Iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi.
4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o‘tish.
5. Qonun ustuvorligi[4].

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Bu beshta tamoil davlatning barcha sohalariga kirib bordi. Yangi islohotlar uchun zamin yaratdi. Endi vatan oldida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot masalalarini milliy manfaatlarga mos ravishda mustaqil hal qilish, jamiyatni yangilash, demokratik davlat qurish yo‘llarini ishlab chiqish kabi dolzarb va mas’uliyatli vazifalar turardi, uning qiyofasi qanday bo‘ladi, degan savollar turardi.

O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov – O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li asarida “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlardan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Xalq xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi”, degan edi[5].

Bugungi kunda taraqiotning O‘zbek modeli o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, u yangi O‘zbekiston taraqiyot strategiyasi uchun nazariy asos vazifasini bajarmoqda. Chunki ushbu model [6]xalq manfaatini ustuvor qo‘yish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, inson qadri konsepsiyasini amalda ro‘yobga chiqarish kabi zamonaviy islohotlar bilan uyg‘un holda qo‘llanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘z taraqiot modeli bor, milliy manfaatlarga tayangan, mustahkam xalq ishonchiga ega davlatlar global jarayonlarda sinovlardan muvoffaqiyatli o‘tadi. O‘zbekistonning so‘ngi yillardagi

islohotlari – iqtisodiy liberallashtirish, sud – huquq tizimini isloh qilish, tadbirkorlikning erkinlashuvi, ochiq va faol tashqi siyosat, infratuzilmani modrenizatsiya qilish, yoshlar siyosatini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirish – bularning barchasi O‘zbek modelining zamonaviy talqini sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, taraqqiyotning O‘zbek modeli – bu nafaqat tarixiy tajriba, balki bugungi kunning amaliyotida ham o‘zini oqlayotgan ilmiy – nazariy yondashuvdir. Shu nuqtaiy nazardan mazkur mavzuni o‘rganish, uning tamoyillari, ustun jihatlari va amaliy natijalarini tahlil qilish hozirgi islohotlar mohiyatini yanada teran anglash imkonini beradi. Zero, bu model O‘zbekistonning hozirgi va kelajak taraqqiyoti uchun muhim konseptual asos bo‘lib, milliy davlatchilikning mustahkamlanishi, iqtisodiy o‘sishning barqarorlashuvi, xalq farovonligining osishi va jamiyatning ma'naviy yuksalishida hal qiluvchi o‘rin tutadi[7].

Tahliliy talqin va mohiyati

1. Iqtisodiy mustaqillik: Modelning maqsadi — tashqi omillarga bog‘liq bo‘lmagan, o‘zini-o‘zi ta'minlay oladigan iqtisodiyotni yaratish.

2. Evolyutsion yondashuv: O‘zbekiston eski tuzumdan yangisiga o‘tishda ijtimoiy portlashlarning oldini olish uchun "tayyorlik" darajasiga qarab islohotlar o‘tkazdi.

3. Milliy xususiyatlar: Model O‘zbekistonning demografik, geografik va mentalitet xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tarixiy ahamiyati

1992-yilda asos solingan bu yo‘l mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy inqirozning oldini oldi, siyosiy barqarorlikni ta'minladi va xalqaro hamjamiyatda O‘zbekistonning o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga xizmat qildi. Bugungi kunda ushbu model yangi taraqqiyot bosqichi — Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi bilan mazmunan boyitilmoqda[8].

Olingan natijalar taxlili va xulosalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo‘li — "O‘zbek modeli" o‘zining puxta nazariy asoslari va amaliy natijalari bilan ajralib turadi. Xususan, Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil mamlakatni murakkab o‘tish davrida barqaror rivojlanish yo‘liga olib chiqishda hal qiluvchi omil bo‘ldi.

Birinchidan, davlatning bosh islohotchi sifatida maydonga chiqishi iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni izchil ravishda transformatsiya qilish imkonini berdi. Bu esa boshqaruvda markazlashgan, lekin bosqichma-bosqich liberallashuvni ta'minlovchi mexanizmni yuzaga keltirdi.

Ikkinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlab, keskin tabaqalanishning oldini oldi. Bu holat ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim omil bo‘ldi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning siyosatdan ustun qo‘yilishi bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etishga xizmat qildi. Natijada iqtisodiy islohotlar keskin inqirozlarsiz amalga oshirildi.

To‘rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga evolyutsion o‘tish yo‘li tanlangani ijtimoiy larzalarsiz transformatsiyani ta’minladi. Bu esa boshqa davlatlar tajribasidan farqli ravishda “shok terapiyasi”dan voz kechilganini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, qonun ustuvorligining ta’minlanishi davlat va jamiyat hayotida huquqiy asoslarning mustahkamlanishiga olib keldi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbek modeli” qisqa muddatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy inqirozning oldini olish va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda esa ushbu model Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida modernizatsiya qilinib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda[9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li — “O‘zbek modeli” milliy manfaatlarga asoslangan, evolyutsion rivojlanishni ko‘zda tutuvchi va ijtimoiy barqarorlikni ustuvor deb biluvchi konsepsiya hisoblanadi. Ushbu model qisqa tarixiy davr ichida o‘zining hayotiyligini va samaradorligini amalda isbotladi.

Modelning asosiy ustunligi — uning moslashuvchanligi va milliy xususiyatlarga tayanganidadir. Aynan shu jihat uni boshqa taraqqiyot modellardan farqlaydi va uzoq muddatli strategik ahamiyat kasb etishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy global jarayonlar sharoitida mazkur modelni yanada takomillashtirish, uni innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Demak, “O‘zbek modeli” nafaqat tarixiy taraqqiyot yo‘li, balki bugungi va kelajak islohotlar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi[10]. U Islom Karimov tomonidan asos solingan bo‘lsa-da, hozirgi davrda yangi mazmun bilan boyitilib, O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: 2003.
2. UzA xabarlari.
3. O‘zbekiston mustaqillikka erishish arafasida yoki sho‘rolar talvasasi. Xujjatli film. YouTube.com.

4. I.A.Karimov O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqiyot yo‘li. – T.: 1992.
5. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, K.D.Saipova, A.A.Odilov, A.A.Ermetov. – T.: 2024.
6. https://www.google.com/.
7. https://ru.scribd.com/document/965975960/Taraqqiyotning-O-Zbek-Moduli
8. in-academy.uz
9. https://chatgpt.com/
10. https://staff.tiiame.uz/